

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

URAKOV DJAXONGIR RAJABOVICH

**PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O‘RTASIDA
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH
BORASIDAGI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Urakov Djaxongir Rajabovich

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkillashtirish masalalari.....3

Ураков Джахонгир Ражабович

Вопросы организации деятельности органов прокуратуры по осуществлению профилактики правонарушений среди молодежи.....27

Urakov Djakhongir Rajabovich

Issues of organizing the activities of the prosecutor's office on the prevention of offenses among young people51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

URAKOV DJAXONGIR RAJABOVICH

**PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O‘RTASIDA
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI AMALGA OSHIRISH
BORASIDAGI FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1467 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “ZiyoNET” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Djurayev Ixtiyor Baxtiyorovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abzalova Xurshida Mirziyatovna
yuridik fanlar doktori, professor

Dovudova Dilzoda Sulaymanovna
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 18-dekabr kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1450-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Sayilgoh ko‘chasi 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 3-dekabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 3-dekabrda 66-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

M.Q. O‘razaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

D.B. Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish dolzarb va ustuvor masalalardan biriga aylanib bormoqda. Jumladan, dunyo bo'ylab har yili 15-29 yoshdagi yoshlar orasida taxminan 193 000 ta qotillik sodir etiladi, yoshlar o'rtasidagi qotillik va o'limga olib kelmaydigan zo'ravonlik nafaqat global miqyosda erta o'lim, jarohatlar va nogironlikni oshishiga, balki insonning psixologik va ijtimoiy faoliyatiga jiddiy, ko'pincha umrbod ta'sir ko'rsatadi¹. BMTning 2024-yilgi "Global Study on Children Deprived of Liberty" hisobotiga ko'ra, har yili dunyoda 7 millionga yaqin bola va yoshlar turli shakllarda ozodlikdan mahrum etiladi, shulardan 259 ming nafarga yaqini sud-huquq tizimi doirasida qamoqqa olingan. Hisobotda qayd etilishicha, qo'lga olingan yoshlarning katta qismi jinoyatni yakka holda emas, balki guruhlar tarkibida sodir etgani, ular ko'pincha uyushgan yoshlar guruhlari yoki noqonuniy tuzilmalar ta'sirida harakat qilgani ma'lum qilingan². Ayniqsa, urbanizatsiya, ishsizlik, ta'limdan chetlashish va oilaviy muhitdagi muammolar yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etishga turtki bo'luvchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Bu tendensiya nafaqat rivojlanayotgan, balki taraqqiy etgan davlatlarda ham xavotirli darajada saqlanib kelmoqda. Shu bois, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, prokuratura organlarining mazkur yo'nalishdagi profilaktik faoliyati barcha mamlakatlar uchun muhim vazifalardan biriga aylangan³ bo'lib, bu, o'z navbatida, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatining tashkilliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatadi.

Jahonda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatda prokuratura organlarining ishtiroki va roli, prokuratura organlarining mazkur yo'nalishdagi faoliyatini tashkil etish, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida ta'lim-tarbiyaning va raqamli texnologiyalarning ahamiyati, idoralararo hamkorlik masalalariga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Shunga qaramay, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish, idoralararo hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish va axborot tizimlarini tatbiq etish, yoshlarga oid qonunchilik ijrosi ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash hamda yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish kabi masalalar bo'yicha muammolar kuzatilmoqda. Bu muammolar bugungi kunda jahon hamjamiyati uchun dolzarb chaqiriqlardan biri ekanligidan dalolat beradi hamda prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligini oshirishga oid ilmiy-nazariy izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

¹ Youth violence. Official site of World health organization. // URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/youth-violence>

² UNICEF Data: Monitoring the situation of children and women. Justice for children. Last update: June 2025. // URL: https://data.unicef.org/topic/child-protection/justice-for-children/?utm_source=chatgpt.com

³ Global Study on Children Deprived of Liberty: note / by the Secretary-General. UN. Secretary-General; UN. Independent Expert for the Global Study on Children Deprived of Liberty. A/74/251 66a Promotion and protection of the rights of children. rights of the child. // URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3813850?v=pdf>

Respublikamizda prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga oid o'ziga xos milliy tizim va normativ-huquqiy asoslar yaratilgan. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasi masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2833-son qarori bilan "voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularga chek qo'yish, shuningdek ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish" davlat idoralari va tashkilotlari, shu jumladan prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifati belgilandi¹. Bu esa, o'z navbatida, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash jarayonida prokuratura organlarining ishtirokini takomillashtirish, ushbu organlarning mazkur sohada faoliyati samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish, shuningdek, bu yo'nalishda qonunni qo'llash amaliyotini yanada yaxshilashga doir nazariy va amaliy masalalarni ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 257-II-son "Prokuratura to'g'risida", 2014-yil 14-maydagi O'RQ-371-son "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida", 2016-yil 14-sentyabrdagi O'RQ-406-son "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida", 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida", 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF–204-son "Raqamli prokuratura – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2833-son qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 12-son, 184-modda, 37-son, 982-modda. // URL: <https://lex.uz/docs/3141186>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ushbu mavzuning ayrim jihatlari B.X. Po'latov, F.H. Raximov, A.X. Saidov, F.M. Muxitdinov, Sh.U. Yakubov, M.Q. O'rozaliyev, O.M. Madaliyev, D.B. Bazarova, I.B. Djurayev, O.S. Sultonov, B.X. Xamidov, U.X. Abduolimov, X.A. Mo'minov, M.M. Mirakulov, A.Z. Sa'dullayev, M.M. Boboyev, Sh.Z. Narziyev, A.O'. Isomiddinov, Sh.R. Ikramov, A.Z. Djurayeva, M.K. Boboumarova, D.Sh. Ibragimov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan.

Jumladan, I.B. Djurayev oliy ta'lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish, O.S. Sultonov dastlabki tergov organlarining profilaktik faoliyatini takomillashtirish, M.K. Boboumarova umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati, D.Sh. Ibragimov voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkillashtirish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirish mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan M.V. Vavilin, Yu.S. Zaletov, V.V. Strelnikov, I.I. Gerbekov, V.S. Eliseyeva, N.S. Daniyev, V. Bessarabov, Ye.V. Stupachenko, V.D. Malkov, V.V. Yasusenko, L.P. Shersten, K.E. Igoshev, V.I. Popov, P.P. Fantrov, V.M. Shinkaruk, M.V. Bobovkin, S.A. Medensov va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mavzuga doir masalalar muayyan darajada tahlil etilgan.

Ushbu mavzuning ayrim jihatlari J. Backstrom, N. Hazel, S. Young, S. Bilchik va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy asarlarida o'rganilgan¹.

Mamlakatimizda prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkillashtirish masalalari kompleks tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan hamda "Odil sudlovni amalga oshirish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini kompleks o'rganish va tadqiq etish hamda takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasi, mohiyati va uning nazariy jihatlarini tahlil etish;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkil etish va uning huquqiy asoslarini o'rganish;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida tahlil etish;

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalarini tahlil etish;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida hamkorlik faoliyatini tadqiq etish;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga oid ilg'or xorij tajribasini o'rganish;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati samaradorligi va ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkillashtirish masalalari bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkiliy-huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti hamda yuridik fanda mavjud bo'lgan ilmiy-nazariy yondashuvlar, qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy tahlil, mantiqiy, ijtimoiy so'rov, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, empirik materiallar va statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish zarurati sababli "huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish"ni prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda prokuratura organlarining ishtiroki muhimligi sababli ularning jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirok etishi "qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha muntazam ravishda aholi bilan uchrashuvlar tashkil etish" orqali amalga oshirilishi lozimligi asoslantirilgan;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish, davlat organlari va tashkilotlar bilan elektron axborot almashinuv tizimini yo'lga qo'yish, bu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini axborot tizimlaridan foydalangan holda tahlil qilib borish zaruriyati sababli prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, nazorat qilish obyektlari faoliyatini raqamlashtirish orqali prokuratura organlarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish, axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali davlat organlari va tashkilotlardan zarur ma'lumotlarni tezkorlik bilan olishni yo'lga qo'yish lozimligi

asoslantirilgan;

yoshlar bilan manzilli va tizimli profilaktika ishlarini olib borish zaruriyati sababli alohida toifadagi shaxslar, jumladan, yoshlar bilan manzilli, ta'sirchan ishlarni tizimli tashkil qilish mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash va xavfsiz muhitni yaratish borasidagi faoliyatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, aholining, shu jumladan yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirishda ishtirok etish prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilanishi zarurligi asoslangan;

prokuratura organlarining fuqarolarning, shu jumladan yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha o'zaro hamkorligi, ularning huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirok etishi tartibi, mazkur faoliyat tamoyillari va shakllarini aniq belgilash hamda qonunchilikda mustahkamlash zarurligi asoslangan;

yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilanishi lozimligi asoslangan;

prokuratura organlari yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha faoliyati monitoringiga oid ishlarni muvofiqlashtirish, monitoring natijalaridan kelib chiqqan holda ular faoliyati samaradorligini baholash, tegishli choratadbirlarni belgilash, uning ijrosini nazorat qilish, yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar va kamchiliklarni prokurorlik faoliyati hujjatlarini kiritish orqali bartaraf etish choralarini ko'rishi zarurati asoslangan;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida maxsus axborot tizimlarini joriy etish, avtomatlashtirilgan elektron axborot almashinuv tizimini yo'lga qo'yish, bu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligini axborot tizimlaridan foydalangan holda tahlil qilib borish zarurati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, 279 nafar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shu jumladan prokuratura organlari xodimlari, sud'yalar, advokatlar, professor-o'qituvchilar, o'quvchi-talabalar, keng jamoatchilik ishtirokida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan O'zbekiston

Respublikasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktikasini amalga oshirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borish, qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda "Prokurorlik faoliyati", "Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish", "Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar", "Kriminologiya" fanlaridan ma'ruza, amaliy mashg'ulot va seminarlar o'tkazishda, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda, o'quv adabiyotlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy** ahamiyati prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, qoidalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunlarni va boshqa qonunchilik hujjatlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkillashtirish masalalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish zarurati sababli "huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish"ni prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash zarurligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir) loyihasi 15-moddasi 1-qismining oltinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 9-yanvardagi 27/2-4-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishni prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanishiga hamda prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda prokuratura organlarining ishtiroki muhimligi sababli ularning jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirok etishi "qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha muntazam ravishda aholi bilan uchrashuvlar tashkil etish" orqali amalga oshirilishi lozimligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir) loyihasi 73-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 9-yanvardagi 27/2-4-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish, profilaktika qilish faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida axborot tizimlarini joriy etish, davlat

organlari va tashkilotlar bilan elektron axborot almashinuv tizimini yo‘lga qo‘yish, bu yo‘nalishdagi faoliyat samaradorligini axborot tizimlaridan foydalangan holda tahlil qilib borish zaruriyati sababli prokuratura organlari faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, nazorat qilish obyektlari faoliyatini raqamlashtirish orqali prokuratura organlarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish, axborot tizimlari va ma‘lumotlar bazalarini integratsiya qilish orqali davlat organlari va tashkilotlardan zarur ma‘lumotlarni tezkorlik bilan olishni yo‘lga qo‘yish lozimligi to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF–204-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasi loyihasi 2-bobi uchinchi, to‘rtinchi va yettinchi xatboshilari loyihalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 11-noyabrdagi 27/2-308-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi prokuratura organlarining yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida axborot tizimlaridan keng foydalanishga hamda mazkur yo‘nalishdagi faoliyatning tezkorligi, samaradorligi va natijadorligiga xizmat qilgan;

yoshlar bilan manzilli va tizimli profilaktika ishlarini olib borish zaruriyati sababli alohida toifadagi shaxslar, jumladan, yoshlar bilan manzilli, ta’sirchan ishlarni tizimli tashkil qilish mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash va xavfsiz muhitni yaratish borasidagi faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilash lozimligi haqidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ–1-son qarori bilan tasdiqlangan Kriminogen vaziyati murakkab mahallalarda jinoyatlarning oldini olish bo‘yicha manzilli choralar kontseptsiyasi 7-bandi to‘rtinchi xatboshisi loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 11-noyabrdagi 27/2-308-25-son dalolatnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi prokuratura organlarining yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligini oshirishga va mahallalarda yoshlar bilan manzilli hamda tizimli ishlarni tashkil etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari 3 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 9 ta (shundan 3 tasi xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Ishning hajmi 147 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik

darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqotni olib borishda foydalanilgan usullar, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatyasi, natijalarning e'lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tushunchasi, mohiyati va uning nazariy jihatlari, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkil etish va uning huquqiy asoslari tahlili amalga oshirilgan.

Mazkur bobda profilaktika, huquqbuzarliklar profilaktikasi, profilaktik hamkorlik, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga oid F. Muxitdinov, O. Sul'tonov, Sh. Yakubov, A. Sa'dullayev, N. Lopayeva, T. Rezer, Yu. Zaletov, Z. Xodjahmetov, I. Gerbekov, V. Vavilin, V. Strel'nikov, A. Bogdanov, Ye. Xazov, I. Ozerov, K. Ozerov, N. Daniyev va boshqa olimlarning fikrlari tahlil qilingan holda mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

Jumladan, tadqiqotchi tomonidan prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati – prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar orqali ular o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishdir”.

Tadqiqotchining fikricha, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligiga yoshlarda milliy qadriyatlarimizga oid ijobiy yondashuvlar, axloqiy me'yorlarga mos keladigan shaxsiy fazilatlarining shakllanganligi ta'sir etadi.

Dissertant tomonidan prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida “profilaktik hamkorlik” zamonaviy jinoyatchilikka qarshi kurashning muhim jihatiga aylanganligi qayd etiladi.

Shu bilan birga, dissertant profilaktikaga oid tahlillarga tayanib, O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni 56-moddasini quyidagi mazmundagi yangi yettinchi qism bilan to'ldirishni taklif etadi: “Profilaktika” degan atama zamirida – muammo yoki hodisa yuzaga kelgunga qadar oldini olishga qaratilgan turli xil chora-tadbirlar majmui yoki bir xil muammo bilan bog'liq turli xil xavf omillarining oldini olishni tushunish kerak”.

Tadqiqotchi prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini chuqur tahlil qilgan holda, yoshlar o'rtasida

huquqbuzarliklar sodir etilishiga asosiy omil sifatida qat'iyat yetishmasligi, giperaktivlik, xatti-harakatlarning buzilishi, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilish, tamaki chakish, ta'lim-tarbiya sifati, maktabga past sadoqat va maktabdagi muvaffaqiyatsizlik, jinoyatga aloqadorlik, ishsizlik, maktabdagi, mahalladagi yoshlarga munosabat, oiladagi muhit va shart-sharoit, oilaviy zo'ravonlikka duchor bo'lish namoyon bo'lishini bayon qilgan. Tadqiqot ishi doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, respondentlar tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning asosiy sabablari sifatida oilaviy tarbiyaning sustligi – oila ichki munosabatlaridagi muammolar va tarbiya sifatining pastligi (41,7 foiz), ijtimoiy-iqtisodiy omillar – bandlik, daromad darajasi, turmush sharoitlar bilan bog'liq muammolar (17,3 foiz), axborot ta'siri – zararli kontentlar, ijtimoiy tarmoqlar va internetning salbiy ta'siri (12,2 foiz), ta'lim tizimidagi kamchiliklar – maktab va ta'lim muassasalarida axloqiy tarbiya va profilaktika ishlarining yetarli emasligi (10,7 foiz) ko'rsatilganligini qayd etgan.

Shuningdek, dissertant V. Eliseyeva, Ye. Shalatayuli, Yu. Tixomirova, D. Goroxova va shu kabi boshqa olimlarning fikrlarini o'rgangan holda prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida “monitoring” muhim ahamiyat kasb etishini hamda prokuratura organlarining nazorat va boshqa funksional faoliyati sifatini oshirishning axborot-tahliliy vositasi hisoblanishini asoslagan.

Muallif tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yagona muvofiqlashtiruvchi organi sifatida prokuratura organlarining yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha faoliyati monitoringiga oid ishlarni muvofiqlashtirish, monitoring natijalaridan kelib chiqqan holda ular faoliyati samaradorligini baholash, tegishli chora-tadbirlarni belgilash, uning ijrosini nazorat qilish, yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar va kamchiliklarni prokurorlik faoliyati hujjatlarini kiritish orqali bartaraf etishga oid vazifa va funksiyalarini O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni 8-moddasiga yangi to'rtinchi qism sifatida kiritish taklif etiladi.

Bundan tashqari, tadqiqotchi prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida “profilaktik mentalitet” ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan hamda uning fikricha, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda profilaktik mentalitet – yoshlarda maktabgacha bo'lgan yosh davridan boshlab huquqbuzarliklarga nisbatan toqatsizlik va murosasizlikni shakllantirish, hamda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishga qaratilgan dunyoqarash va tafakkur tarzini rivojlantirish jarayonidir.

Tadqiqot ishida prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati maqsadi yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni kamaytirish emas, balki ular o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini barvaqt oldini olish, huquq-tartibotni yanada

mustahkamlash, ularni huquqbuzarliklarga toqatsiz va murosasiz, yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, turli xil huquqbuzarliklardan himoyasini haqiqatda ta'minlash choralarini ko'rishdan iborat ekanligi dissertant tomonidan asoslab berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasi 1-qismini quyidagi mazmundagi yangi 14-band bilan to'ldirish taklif etiladi:

"yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish".

Muallifning fikricha, yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablarini va shart-sharoitlarini sinchkovlik bilan, to'liq, xolisona va har tomonlama o'rganish, ularning huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yanada mustahkamlash maqsadida prokuror nazorati yoshlarga oid jinoyat ishlarini sudga asossiz o'tkazishga to'siq bo'lishi kerak. Binobarin, dastlabki tergovning yakuniy bosqichida yoshlarga qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tergovchilar tomonidan tuzilgan ayblov xulosasining barcha jihatlarini o'rganish bo'yicha prokuror nazoratini kuchaytirish zarur. Bu o'z navbatida sudgacha bo'lgan bosqichda ularning huquqlari ta'minlanishi kafolatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertant prokuratura organlari tomonidan nazorat faoliyatini amalga oshirishda yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda ishtirok etuvchi organlarning normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifa va funksiyalarini o'z vaqtida, sifatli va samarali bajarishini ham o'rganilishi maqsadga muvofiqligini asoslagan. Bu esa, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarishni ta'minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratish, jamiyat hayotida ularning o'rni va faolligini oshirish, sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash, ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlashda prokuratura organlarining ishtiroki"** deb nomlangan ikkinchi bobida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish – prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida o'rganilgan, shuningdek prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida hamkorlik faoliyati tahlil etilgan.

Mazkur bobda, prokuror nazorati yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning eng muhim kafolatlaridan biri sanalishi asoslangan. Shuningdek, dissertant tomonidan yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati instituti boshqa prokuror nazorati institutlaridan farq

qilishi, uning asosini boshqa prokuror nazorati institutlarining nazorat predmetiga aloqador bo‘lmagan yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish tashkil etishi ta’kidlangan.

Muallif yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati deganda, boshqa prokuror nazorati predmetlaridan farqlanuvchi, mustaqil, alohida xususiyat kasb etuvchi, yoshlar huquqlariga oid qonunchilik hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi hamda yoshlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishga xizmat qiluvchi prokuratura organlarining davlat organi sifatidagi alohida faoliyati tushunilishini ta’kidlagan. Shuningdek, yoshlar, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazoratining vazifalari, huquqiy asoslari va amaliy ahamiyatini yoritgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida **vatanparvarlik, vatanparvarlik tarbiyasi** bilan bog‘liq prinsip va qoidalar nazarda tutilmaganligi tadqiqotchi tomonidan asoslangan. Uning fikricha, bu kabi tushunchalarning ushbu qonunga kiritilishi, respublikamizda mavjud barcha ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasiga oid maxsus o‘qitish dasturlarining joriy etilishi, yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar bu jarayonda faol ishtirokchiga aylanishi yangi O‘zbekiston kelajagiga bafarq bo‘lmagan, vatanparvar, sadoqatli yangi avlod kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchi tahlillarga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasiga “**Vatanparvarlik tarbiyasi**” tushunchasi, 4-moddasi birinchi qismi 7-bandiga ta’lim sohasidagi asosiy prinsip sifatida **vatanparvarlik** prinsipi kiritilishini taklif etadi:

Dissertant huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida axborot texnologiyalarining roli, raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari bo‘yicha M. Boboyev, I. Djurayev, V. Bessarabov, A. Ivlyev, I. Potapova, E. Sugaipova, Yu. Eliseyeva, S. Djioyev, Ye. Stupachenko, A. Tixiy va shu kabi boshqa olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasi bilan bog‘liq qonunchilik hujjatlari ijrosini axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanib axborot tizimlari orqali elektron tekshirish prokuratura organlari ish yuklamasini yengillashtirishga, ortiqcha vaqt va resurs sarflanishini oldini olishga, mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir etishini asoslagan.

Dissertant prokuratura organlarining yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyatini tashkillashtirishda alohida idoralararo yagona axborot texnologiyalarini joriy etish, bu boradagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida **huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, axborot** yo‘nalishlarida ta’sirchan choralarni ko‘rish, yoshlarning huquqlari, erkinliklarini amalga oshirish, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularga ko‘mak, maslahat berish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, ular o‘rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, huquqbuzarlik sodir etishga moyillik paydo bo‘layotgan yoshlar bo‘yicha o‘z vaqtida xabar berish va bunday yoshlarning muammolarini aniqlash, hal qilish hamda ularni bu yo‘ldan darhol

qaytarish choralari ko'rishga yordam beradigan **“Yoshlar – yoshlarga, tengdoshlarga, kelajakka befarq emas”, “Yoshlar – yoshlarga madadkor”** maxsus dasturiy platformalarni ishlab chiqish va joriy etishni taklif etadi. Xususan, ijtimoiy so'rovda qatnashgan respondentlarning 79,9 foizi yuqoridagi fikrni tasdiqlagan.

Dissertant tomonidan prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalari tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi qonuni 21-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirish taklif etiladi: “Qonunlar ijrosini tekshirish axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda dasturiy ta'minot (axborot tizimlari) orqali elektron shaklda o'tkazilishi mumkin.”.

Tadqiqotchining fikricha, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatiga joriy etilayotgan axborot texnologiyalari mazkur sohada qonun ustuvorligini mustahkamlash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining samaradorligi va sifatini yanada oshirish, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirishga xizmat qiluvchi vosita sanaladi.

Dissertant tomonidan axborot kommunikasiya texnologiyalarini prokuratura organlarining, shuningdek yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi, unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga keng joriy qilish tezkor axborot almashish, statistik hisobotlarni yuritish, hujjatlarni qabul qilish va jo'natish, ma'lumot va materiallar bilan elektron ishlash, mehnat unumdorligini oshirish, qonunchilik ijrosini ta'minlash jarayonida huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini kamaytirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Tadqiqotchining qayd etishicha, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha hamkorlik faoliyati tahlillaridan kelib chiqib shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq chet el davlatlarining tegishli organlari bilan prokuror nazorati, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamda boshqa masalalar bo'yicha hamkorlik qilishiga oid norma mustahkamlangan bo'lib, mazkur Qonunda prokuratura organlarining davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar bilan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida va boshqa yo'nalishlarda o'zaro hamkorligi masalasi belgilanmagan.

Tadqiqotchi ayrim huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalari, xorijiy davlatlar qonunchiligi tahliliga tayangan holda O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunini **“Prokuratura organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha o'zaro hamkorligi”** deb nomlangan yangi 8¹-modda bilan to'ldirishni taklif etadi.

Bundan tashqari, dissertant tomonidan tadqiqot ishida prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqari organlari, boshqa tashkilot va idoralar bilan o'zaro hamkorligining asosiy shakllari yotilgan.

Dissertatsiyaning **“Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga oid ilg'or xorij tajribasi, shuningdek prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati samaradorligi va ta'sirchanligini oshirish istiqbollari tadqiq qilingan.

Dissertant tomonidan jahonda prokuratura organlarining tuzilishi va ular faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlarini belgilab beradigan yagona xalqaro standart yo'qligi to'g'risida xulosaga kelingan. Muallif prokuratura organlari tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish jarayonida huquqbuzarliklar profilaktikasining ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy, himoya, tartibga solish, tashkiliy, tahliliy va prognoz funksiyalaridan foydalanish ushbu yo'nalishdagi faoliyat samaradorligiga ijobiy ta'sir etishini qayd etadi.

Tadqiqotchining qayd etishicha, ayrim xorijiy davlatlarning prokuratura to'g'risidagi qonunchiligida prokuratura organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi (shu jumladan, yoshlar o'rtasida) faoliyati nazarda tutilmagan (*Ozarbayjon, Armaniston*), qisman huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish (shu jumladan, yoshlar o'rtasida) bo'yicha vakolatlari belgilangan (*Fransiya, Ispaniya*), huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilish (shu jumladan, yoshlar o'rtasida), bu yo'nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish prokuratura organlarining vazifasi yoki faoliyat yo'nalishi sifatida mustahkamlangan (*Belarus, Gruziya, Polsha, Moldova, Qozog'iston*). Xorijiy davlatlar qonunchiligi tahliliga tayangan holda prokuratura organlari tomonidan yoshlar huquqbuzarliklariga qarshi kurashning asl maqsadi sodir etilgan jinoyat yoki huquqbuzarlik uchun yoshlarni jazolash yoki ularga boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishi statistikasini oshirish emas, balki kelgusida yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini barvaqt oldini olish, uni profilaktika qilish maqsadini ko'zlashini ta'kidlaydi.

Dissertant O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish prokuratura organlarining vazifasi sifatida mustahkamlangan bo'lsa-da, asosiy faoliyat yo'nalishlarida nazarda tutilmaganligini qayd etadi. Vaholanki, prokuratura organlari mamlakatimizda huquqbuzarliklarning, shu jumladan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha muhim vazifalarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, ijtimoiy so'rovda qatnashgan respondentlarning 257 nafari (91,8 foizi) yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va profilaktika qilish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirish hamda ularni ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq ishlarda prokuratura organlarining ishtiroki zarurligini tasdiqlaydi.

Dissertant ayrim huquqshunos olimlarning qarashlari, xorijiy davlatlarning prokuratura to'g'risidagi qonunchiligi tahliliga tayangan holda mamlakatimizda prokuratura organlarining bu boradagi vakolatlarini qonunchilikda yanada mustahkamlash, aholi, shu jumladan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi 1-qismi 4-bandini quyidagi mazmunda bayon etish, lozim deb hisoblaydi: **"huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunlarning ijrosi, tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish"**.

Bundan tashqari, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati aniq maqsadga qaratilgan quyidagi yo'nalishlarni nazarda tutishi maqsadga muvofiqligini asoslaydi:

mamlakatimizda yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari, hududiy va boshqa dasturlarni ro'yobga chiqarish maqsadida Bosh prokurorning sohaviy buyruqlariga muntazam ravishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritib borish;

yoshlar o'rtasida sodir etilgan huquqbuzarliklarni muntazam o'rganish va tahlil qilish;

yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar bilan hamkorlikda ishlash, ularning yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan vazifalari ijrosini o'rganib borish.

Tadqiqotchi mahalla va ushbu yo'nalishga mas'ul bo'lgan hamda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatida ishtirok etadigan davlat organlari (shu jumladan, prokuratura organlari), idoralar, tashkilotlar, muassasalar har bir mahalla bo'yicha **"ko'cha – oila – yoshlar"** tamoyilini joriy etish orqali aniqlangan muammolardan kelib chiqqan holda manzilli va maqsadli vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqligi bo'yicha xulosaga kelgan.

Tadqiqot muallifi prokuratura organlari tomonidan yoshlar bilan o'tkazilayotgan tadbirlarga huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat organlari bilan bir qatorda soliq, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash va shu kabi yoshlar huquqlarini ta'minlashda ishtirok etuvchi idoralar, muassasalar, tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini ham kengroq jalb etish, maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Dissertant prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligi ko'p jihatdan yoshlar huquqiy ongining rivojlanganlik darajasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Yoshlar huquqiy ongining, huquqiy savodxonligining pastligi ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'ladigan omillardan biri ekanligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda, tadqiqot doirasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalariga ko'ra, 279 nafar respondentning 145 nafari (52 foizi) yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy

madaniyati yuksaltirish, 97 nafari (34,7 foizi) oilada huquqiy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni bolalikdan o'rgatish prokuratura organlari tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirishda muhim ta'sirchan omillar sifatida qo'llab-quvvatlanganligini qayd etadi.

Tadqiqotchi tomonidan prokuratura organlari tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganligi bo'yicha fikrlar ilgari suriladi. Ammo, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasida prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish belgilangan bo'lib, ushbu Qonunda aholining, shu jumladan, yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirishda prokuratura organlarining ishtiroki nazarda tutilmaganligi to'g'risida asosli xulosaga kelingan. Vaholangki, prokuratura organlarining jamiyatda aholining, shu jumladan yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirishdagi o'rni ahamiyatlidir.

Dissertant mamlakatimiz yoshlarining huquqiy ongini yuksaltirishda prokuratura organlarining ishtirokini qonunchilikda mustahkamlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi 1-qismi 9-bandini quyidagi mazmunda bayon etishni taklif etadi: "huquq ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda **huquqiy ong** va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish".

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga "**Prokuratura organlarining jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirok etishi**" deb nomlangan yangi 8²-modda kiritish taklif etiladi.

Dissertant prokuratura organlari tomonidan mamlakatimiz kelajagi yoshlar o'rtasida maqsadli profilaktika ishlarini olib borish, yoshlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishning yanada ishonchli mexanizmlarini joriy etish, yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan alohida prokuror nazoratini amalga oshirish yoshlar o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash va oldini olishga xizmat qilishi bo'yicha xulosaga keladi.

Tadqiqotchi tomonidan yoshlarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosini sifatli va o'z vaqtini bajarilishini mustaqil nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasini "yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat qilish;" deb nomlangan birinchi xatboshi bilan to'ldirish, shuningdek ushbu Qonunga "**Yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat**", deb nomlangan yangi 1¹-bob kiritish (*yangi 1¹-bobning matni dissertatsiyaga 2-ilovada keltirilgan*) taklif etiladi.

Bundan tashqari, dissertant O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi "2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish

bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-son qarori ijrosini ta'minlash, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish faoliyati samaradorligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi "Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida"gi 129-son buyrug'i 2-bandini quyidagi mazmundagi yangi o'n birinchi xatboshi bilan to'ldirishni taklif etadi: "yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish choralari ko'rilganligi".

Shuningdek, dissertant tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrdagi "Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 166-son buyrug'i 1-bandi sakkizinchi xatboshisi mazmunini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan: "xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, **ular o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish**, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirishga oid qonun hujjatlari ijrosiga;"

Shu bilan birga, tadqiqotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining "Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i loyihasi ishlab chiqilgan va dissertatsiyaga ilova qilingan.

Tadqiqotchi tadqiqot tahlillariga tayangan holda prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni "**tashkiliy-boshqaruv**", "**normativ-huquqiy**", "**ijtimoiy-iqtisodiy**", "**texnik-texnologik**", "**jamiyat bilan aloqa**", "**profilaktika chora-tadbirlarning sifati**" kabi omillarga ajratish bo'yicha xulosaga kelgan. Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning har biri muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni kompleks ravishda hisobga olish va boshqarish profilaktika ishlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatini tashkillashtirish masalalarini tadqiq etish natijalari yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. *Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati* deganda, prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar orqali

ular o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

2. *Yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi* deganda, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoyasini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarning majburiyligini ular tomonidan tan olish va qonunchilik hujjatlariga qat'iy amal qilgan holda uning ijrosini so'zsiz ta'minlash tushuniladi.

3. *Yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan prokuror nazorati* deganda, boshqa prokuror nazorati predmetlaridan farqlanuvchi, mustaqil, alohida xususiyat kasb etuvchi, yoshlar huquqlariga oid qonunchilik hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi hamda yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilishga xizmat qiluvchi prokuratura organlarining davlat organi sifatidagi alohida faoliyati tushuniladi.

4. *Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida hamkorlik faoliyati* deganda, prokuratura organlarining tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar bilan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish, ularning sifatli ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar, qonunga itoatkor, huquqbuzarliklarga toqatsiz barkamol avlod sifatida shakllanishida o'zaro samarali hamkorligi tushuniladi.

5. *Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati maqsadi* – yoshlar o'rtasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni kamaytirish emas, balki ular o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, huquq-tartibotni yanada mustahkamlash, ularni huquqbuzarliklarga toqatsiz va murosasiz, yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash, turli xil huquqbuzarliklardan himoyasini haqiqatda ta'minlash choralarini ko'rishdan iboratdir.

6. *Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish* deganda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlar o'rtasida vazifalarni to'g'ri taqsimlash, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishga qaratilgan ishlarni to'g'ri tashkillashtirish, huquqbuzarliklarni aniqlash hamda bartaraf etish uchun muvofiqlashtiruvchi kengash chaqirish, ishchi guruhlar tashkil etish, zarur axborot, shu jumladan statistika ma'lumotlarni talab qilish, topshiriq va ko'rsatmalar, taklif va tavsiyalar berish tushuniladi.

7. *Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasida davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqari organlari, boshqa tashkilot va idoralar bilan o'zaro hamkorligining asosiy shakllari* quyidagilardan iborat:

prokuratura organlari vakillarining davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqari organlari, boshqa tashkilot va idoralar mutaxassislari, vakillarini jalb qilgan holda prokuror tekshiruvlarini o'tkazish;

prokuratura organlari vakillarining davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqari organlari, boshqa tashkilot va idoralar tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

prokuratura organlari vakillarining davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqari organlari, boshqa tashkilot va idoralarning yoshlarga oid qonun hujjatlari ijrosi bo'yicha so'ralgan hujjatlarni, ma'lumotlarni taqdim etishi;

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga sifatli ta'lim berish masalalari bo'yicha qo'shma hay'atlar va yig'ilishlar tashkil etish amaliyoti;

yoshlarga oid qonun hujjatlari buzilishiga qarshi kurashish bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar ishini tashkil etish;

ta'lim, sport va yoshlar siyosati sohasida prokuratura va davlat organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha tadbirlar tashkil etish;

qo'shma uslubiy va boshqa hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

II. Qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

1. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 2-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan:

"2-modda. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining *maqsadi va asosiy vazifalari*

Inson, uning hayoti, huquq va erkinliklarini davlatning oliy qadriyati sifatida himoya qilish, O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligini, qonunchilik hujjatlarining aniq va bir xilda ijrosini so'zsiz ta'minlash maqsadida prokuratura organlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash;

fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish;

huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish;

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalar."

2. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi birinchi qismini quyidagi mazmunda birinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoyasiga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat qilish.

Birinchi qism birinchi –to'qqizinchi xatboshilar tegishincha ikkinchi – o'ninchi xatboshilar hisoblansin."

3. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi 1-qismi 4-bandini quyidagi mazmunda bayon etish taklif etilgan: **"huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonunlarning ijrosi, tezkor-qidiruv**

faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda **huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;**”.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunini “**Yoshlar huquqlari himoyasiga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan nazorat**” deb nomlangan yangi 1¹-bob bilan to‘ldirish taklif etilgan (*Qonun loyihasi dissertatsiyaning 2-ilovasida keltirilgan*).

5. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunini quyidagi mazmunda 8¹-modda bilan to‘ldirish taklif etilgan:

“8¹-modda. Prokuratura organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorligi

Fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish maqsadida prokuratura organlari davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari, jamoat birlashmalari, mulkchilik shaklidan qat‘iy nazar boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.”

6. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni 4-moddasi 1-qismi 9-bandi quyidagi mazmunda bayon etilishi taklif etilgan:

*“huquq ijodkorligi faoliyatida hamda aholining **huquqiy ongi** va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ishtirok etish.”*

7. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuniga quyidagi vazifani nazarda tutuvchi 8²-modda kiritish taklif etilgan.

“8²-modda. Prokuratura organlarining jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ishtirok etishi

Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta‘minlash hamda fuqarolar, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish vazifalarini amalga oshirish doirasida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarida ishtirok etadi.

Ushbu faoliyat qonuniylik, oshkoralik, xolislik va profilaktikaga yo‘naltirilganlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Prokuratura organlarining huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasidagi ishtiroki quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

aholi, ayniqsa yoshlar, voyaga yetmaganlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, tadbirkorlar va korrupsiya xavfi yuqori sohalar xodimlari uchun huquqiy-ma‘rifiy chiqishlar, ochiq muloqotlar va sayyor qabullar o‘tkazish;

ta‘lim muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalarda huquqiy-ma‘rifiy tadbirlar uyushtirish;

ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar orqali qonun hujjatlari, sud hujjatlari ijrosi va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid tushuntirish materiallarini tayyorlash va e‘lon qilish.

Prokuratura organlari ushbu yo‘nalishda davlat organlari, ta‘lim muassasalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat

birlashmalari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ish yuritadi. Hamkorlikdagi tadbirlar to'g'risida jamoatchilik muntazam xabardor qilinadi."

8. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 21-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Qonunlar ijrosini tekshirish axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda dasturiy ta'minot (axborot tizimlari) orqali elektron shaklda o'tkazilishi mumkin."

9. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 56-moddasini quyidagi mazmundagi yangi yettinchi qism bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Profilaktika" degan atama zamirida – muammo yoki hodisa yuzaga kelgunga qadar oldini olishga qaratilgan turli xil chora-tadbirlar majmui yoki bir xil muammo bilan bog'liq turli xil xavf omillarining oldini olishni tushunish kerak"

10. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 8-moddasini quyidagi mazmundagi yangi to'rtinchi qism bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yagona muvofiqlashtiruvchi organi sifatida prokuratura organlari yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi organlar va muassasalarning yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish bo'yicha faoliyati monitoringiga oid ishlarni muvofiqlashtirish, monitoring natijalaridan kelib chiqqan holda ular faoliyati samaradorligini baholash, tegishli chora-tadbirlarni belgilash, uning ijrosini nazorat qilish, yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar va kamchiliklarni prokurorlik faoliyati hujjatlarini kiritish orqali bartaraf etish choralari ko'radi."

11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasini quyidagi mazmundagi o'n sakkizinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Vatanparvarlik tarbiyasi – vatanga muhabbat va sadoqat, unga nisbatan g'urur va iftixor tuyg'ularini, vatan oldidagi mas'uliyatni chuqur anglashni, vatan ravnaqi yo'lida halol xizmat qilishni, konstitutsiyaviy burchni vijdonan bajarishni, milliy urf-odat va an'analarni hurmat qilishni o'rgatishga, qonunga itoatkor, yuksak huquqiy bilim va axloqiy fazilatlariga ega, vatanparvar kelajak avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'limdir."

12. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi yettinchi xatboshisini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan:

*"ta'lim va tarbiyaning **vatanparvarlik**, insonparvarlik, demokratik xususiyati;"*

13. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni 5-moddasi 1-qismini quyidagi mazmundagi yangi 14-band bilan to'ldirish taklif etilgan:

"yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablari va bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish."

III. Huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar:

1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2016-yil 22-fevraldagi "Jinoyatchilikka qarshi kurash, surishtiruv, dastlabki tergov va tezkor-qidiruv faoliyatida qonun ustuvorligini hamda shaxsning huquq va erkinliklari himoyasini samarali ta'minlash to'g'risida" 129-son buyrug'i 2-bandini quyidagi mazmundagi o'n birinchi xatboshisi bilan to'ldirish taklif etilgan:

"yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish choralari ko'rilganligi."

2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrda "Ijtimoiy va iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 166-son buyrug'i 1-bandi sakkizinchi xatboshisi mazmunini quyidagi tahrirda bayon etish taklif etilgan:

"xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, ular o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirishga oid qonun hujjatlari ijrosiga;"

3. Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida **"Raqamli prokuror nazorati"** mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslantirib berilgan.

4. Yoshlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablarini va shart-sharoitlarini sinchkovlik bilan, to'liq, xolisona va har tomonlama o'rganish, ularning huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yanada mustahkamlash maqsadida prokuror nazorati yoshlarga oid jinoyat ishlarini sudga asossiz o'tkazishga to'siq bo'lishi kerakligi asoslantirilgan. Binobarin, dastlabki tergovning yakuniy bosqichida yoshlarga qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tergovchilar tomonidan tuzilgan ayblov xulosasining barcha jihatlarini o'rganish bo'yicha prokuror nazoratini kuchaytirish zarurligi taklif etilgan. Bu o'z navbatida sudgacha bo'lgan bosqichda ularning huquqlari ta'minlanishi kafolatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

5. Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyati axborot ta'minotining tashkiliy asoslarini takomillashtirishda prokuratura organlari xodimlarini axborot bilan ishlashga **maxsus o'qitish va tayyorlashni** nazarda tutish lozimligi asoslab berilgan.

6. Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish borasidagi faoliyatiga oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlarning professor-o'qituvchilari, tajribali ilmiy xodimlarini jalb qilish hamda ular bilan hamkorlikda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid keng ko'lamli va natijador **tadqiqotlar olib borish**, dolzarb ahamiyat ega ilmiy tadqiqot ishlari mualliflarini **moddiy rag'batlantirish** tizimini joriy etish tavsiya etilgan.

7. Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyatini tashkillashtirishda alohida idoralararo

yagona axborot texnologiyalarini joriy etish, bu boradagi faoliyatni takomillashtirish maqsadida **huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, axborot** yo'nalishlarida ta'sirchan choralarini ko'rish, yoshlarning huquqlari, erkinliklarini amalga oshirish, qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularga ko'mak, maslahat berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, ular o'rtasida huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish, huquqbuzarlik sodir etishga moyillik paydo bo'layotgan yoshlar bo'yicha o'z vaqtida xabar berish va bunday yoshlarning muammolarini aniqlash, hal qilish hamda ularni bu yo'ldan darhol qaytarish choralarini ko'rishga yordam beradigan **“Yoshlar – yoshlarga, tengdoshlarga, kelajakka befarq emas”, “Yoshlar – yoshlarga madadkor”** maxsus dasturiy platformalarni ishlab chiqish va joriy etish taklif etilgan.

8. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining “Prokuratura organlarining yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi buyrug'i loyihasi ishlab chiqilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

УРАКОВ ДЖАХОНГИР РАЖАБОВИЧ

**ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ
ПРОКУРАТУРЫ ПО ОСУЩЕСТВЛЕНИЮ ПРОФИЛАКТИКИ
ПРАВОНАРУШЕНИЙ СРЕДИ МОЛОДЕЖИ**

12.00.07 – Судебная власть. Прокурорский надзор. Организация правоохранительной
деятельности. Адвокатура

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по юридическим наукам (Doctor of Philosophy)

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за №B2024.2.PhD/Yu1467.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.
Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском, (резюме)) на веб-странице Научного совета (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Джураев Ихтиёр Бахтиёрович доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Абзалова Хуршида Мирзиятовна доктор юридических наук, профессор Давудова Дилзода Сулаймановна доктор юридических наук, доцент
Ведущая организация:	Каракалпакский государственный университет имени Бердака

Защита диссертации состоится 18 декабря 2025 года в 14:00 на заседании Научного совета DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г.Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +998)71-233-66-36; факс: +9989 71-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована за № 1450) (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +998 71-233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 3 декабря 2025 года.
(протокол реестра №66 от 3 декабря 2025 г.).

А.А. Отажонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

М.К. Уразалиев
Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

Д.Б. Базарова
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Во всем мире одним из приоритетных вопросов становится предупреждение правонарушений среди молодежи. В частности, ежегодно в мире совершается примерно 193 000 убийств среди молодежи в возрасте 15-29 лет, убийства и насилие без смертельных последствий среди молодежи в глобальном масштабе влияют не только на рост ранней смертности, повреждений и инвалидности, но и оказывают серьезное, зачастую пожизненное, влияние на психологическую и социальную активность человека¹. Согласно отчету ООН «Global Study on Children Deprived of Liberty» за 2024 год, ежегодно в мире около 7 миллионов детей и молодых людей в различной форме лишаются свободы, из них около 259 тысяч взяты под стражу в рамках судебной системы. Как отмечается в докладе, значительная часть задержанных молодых лиц совершала преступления не единолично, а в составе групп, они часто действовали под влиянием организованных молодежных группировок или незаконных формирований². В особенности, урбанизация, безработица, отчуждение от образования и проблемы семейной среды являются одними из основных факторов, способствующих совершению преступлений среди молодежи. Эта тенденция сохраняется на тревожном уровне не только в развивающихся, но и в развитых странах. Поэтому профилактическая деятельность правоохранительных органов, в частности органов прокуратуры в этом направлении стала одной из важнейших задач для всех стран³, это, в свою очередь, свидетельствует о необходимости совершенствования организационно-правовых основ деятельности органов прокуратуры по осуществлению профилактики правонарушений среди молодежи.

В мире особое внимание уделяется научным исследованиям о вопросах участия и роли органов прокуратуры в деятельности по осуществлению профилактики правонарушений среди молодежи, организации деятельности органов прокуратуры в данном направлении, значения в деятельности по профилактике правонарушений среди молодежи образования, воспитания и цифровых технологий, межведомственного сотрудничества. Тем не менее, наблюдаются проблемы в эффективной организации профилактики правонарушений среди молодежи, формировании механизмов межведомственного сотрудничества и внедрении информационных систем, обеспечении действенного надзора за исполнением законодательства о молодежи, а также повышении правосознания и правовой культуры молодежи. Данные проблемы свидетельствуют о том, что сегодня для мирового сообщества они являются одним из актуальных вызовов, а также

¹ Youth violence. Official site of World health organization, // URL: <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/youth-violence>

² UNICEF Data: Monitoring the situation of children and women. Justice for children. Last update: June 2025. // URL: https://data.unicef.org/topic/child-protection/justice-for-children/?utm_source=chatgpt.com

³ Global Study on Children Deprived of Liberty: note / by the Secretary-General. UN. Secretary-General; UN. Independent Expert for the Global Study on Children Deprived of Liberty. A/74/251 66a Promotion and protection of the rights of children. rights of the child, // URL: <https://digitallibrary.un.org/record/3813850?v=pdf>

обуславливают проведение научно-теоретических исследований касательно повышения эффективности деятельности прокуратуры по профилактике правонарушений среди молодежи.

В республике создана уникальная национальная система и нормативно-правовые основы о деятельности органов прокуратуры в сфере осуществления профилактики правонарушений среди молодежи. Вопросы ранней профилактики правонарушений среди молодежи уделяется внимание на уровне государственной политики. Постановлением Президента Республики Узбекистан от 14 марта 2017 года № PQ-2833 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы профилактики правонарушений и борьбы с преступностью» определено, что «осуществление эффективной профилактики правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи, предотвращение правонарушений и пресечение их совершения, а также выявление, анализ и устранение причин и условий, способствующих их совершению» является одним из основных направлений деятельности государственных органов и организаций, в том числе органов прокуратуры¹. Это, в свою очередь, требует научного исследования практических и теоретических вопросов совершенствования участия органов прокуратуры в процессе обеспечения профилактики правонарушений среди молодежи, повышения эффективности и действенности деятельности данных органов в этой сфере, а также дальнейшего улучшения правоприменительной практики в данном направлении.

